

Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ilm-fani, yetakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy voqeliklarga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o'ziga xos rag'bat bo'ldi.





Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur sohani va olimlarni qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir.



Ayni paytda viloyatda 4 ta tayanch doktoraturasi mavjud oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu muassaslarda 109 nafar doktorantura izlanuvchilari tadqiqot olib bormoqdalar. Ulardan 33 nafari ayollardan iborat.




Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tajriba- konstruktorlik ishlanmalar



*4 ta fundamental
tadqiqotlar*



*13 olib borilgan ilmiy
tadqiqotlar*

2018 yil davomida Andijon viloyatida

*22 ta tashkilot ilmiy tadqiqot va tajriba-
konstruktorlik ishlarini olib bordilar.*

*Ushbu tashkilotlar 27 ta yangi ilmiy-
tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.*

*4 ilmiy-texnik
xizmatlardan*



*6 tasi qurilish uchun
loyiha ishlari*






Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



Barchamizga ma'lumki ilm fan yaratgan har qanday yangi mahsulot insonlarni hayotini yaxshilashga xizmat qiladi . Bu borada mamlakatimiz ham hech qaysi rivojlangan mamlakatlardan ortda qolmagan holda yangidan yangi ilm fan yutuqlari asosida mahsulotlar yaratmoqda va bu mahsulotlar quyidagi raqamlar orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ne chog`li zarur ekanligini ko`rstmoqda.


2018 yil davomida tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xajmi (mln. so`m)





Viloyatimizda 2018 yil mobaynida fan sohalari bo'yicha tashkilotlarda o'z kuchi bilan jami 5818.8 mln so'm hajimdagi ilmiy tajriba va konstruktorlik ishlanmalar amalga oshirildi.

jami	tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xo'jaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
5818.8	98.7	946,2	2582,2	1484,0	65,4	642,2
mln. so'm	mln. so'm	mln. so'm	mln. so'm	mln. so'm	mln. so'm	mln. so'm



● tabiiy fanlari ● texnika fanlari ● tibbiyot fanlari ● qishloq xo'jaligi fanlari
● ijtimoiy fanlar ● gumanitar fanlar



Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



2018 yil Andijon viloyati bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga fan sohalari kesimida xarajatlar.

	<i>Jami:</i>	<i>tabiiy fanlar</i>	<i>texnika fanlari</i>	<i>tibbiyot fanlari</i>	<i>qishloq xo'jaligi fanlari</i>	<i>ijtimoiy fanlar</i>	<i>gumanitar fanlar</i>
Jami, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlar	5818,8	98,7	946,2	2582,2	1484,0	65,4	642,2
shu jumladan: o'z kuchi bilan bajarilgan	5818,8	98,7	946,2	2582,2	1484,0	65,4	642,2
joriy xarajatlar	5418,1	98,7	946,2	2582,2	1483,3	65,4	242,2
ulardan: mehnatga haq to'lash xarajatlari	2022,4	68,0	567,8	191,7	990,5	48,7	155,6
shu jumladan ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarga (o'rindoshlarsiz)	1965,0	55,2	567,8	177,9	966,7	42,7	154,6
ijtimoiy sug'urta ajratmalari	488,2	20,7	140,4	30,6	244,4	13,7	38,3
asbob uskunalarga xarajatlar	80,9	-	-	22,0	58,8	-	-
shu jumladan asosiy fondlarga ajratmalarga	12,4	-	-	-	12,4	-	-
asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	43,8	-	-	-	43,8	-	-
boshqa moddiy xarajatlar	59,9	-	-	0,7	59,2	-	-
boshqa moddiy xarajatlar	399,0	10,0	238,0	13,1	86,5	3,0	48,3
kapital xarajatlar	81,1	-	-	-	81,1	-	-
boshqa kapital xarajatlar	81,1	-	-	-	81,1	-	-
fundamental tadqiqotlarga	1812,7	64,7	927,5	43,0	110,0	40,4	627,2
amaliy tadqiqotlarga	1187,9	-	-	111,5	1076,4	-	-
ilmiy texnik ishlanmalarga	231,1	-	-	103,8	127,3	-	-




Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



Ma'lumki, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ilm fan muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash" vazifalari belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

2018 yil viloyatimizda bu borada amaliy ishlar olib borilmoqda . Jumladan ilm fan bo'yicha tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni olib boruvchi xodimlar uchun kerakli sharoitlar yaratilib berildi. Viloyatimizda jami 208 ta xodim ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajargan , ulardan 78 tasi ayollar.





Andijon viloyatida ilm va fan statistikasi



Viloyat bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba - konstruktorligini bajargan, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy - pedagogik xodimlarni qo'shgan holda ilmiy daraja va ta'lim darajasi kesimida mutaxassis - tadqiqotchilar soni.

Jami:	1863
ayollar	731
oliy ma'lumotlilar	730
ilmiy darajaga ega :	
fan doktorlari	90
fan nomzodi	421
falsafa doktori	54
ma'lumotga ega :	
bakalavr	34
magistratura	187
o'rta maxsus:	6